

## SHARQONA TARBIYADA JAHOLAT VA MA'RIFAT BORASIDAGI QARASHLAR

**Isakulov Mamadoli Ro`zimurodovich, katta o`qituvchisi**  
**Malikova Bibixonim, 2-kurs talabasi**  
**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

[mamadoliisaqulov@gmail.cjm](mailto:mamadoliisaqulov@gmail.cjm)

**Annotatsiya:** Ushbu maqola sharqona tarbiyada jaholat va ma'rifat borasidagi masalalariga bag'ishlangan bo'lib, sharqona tarbiyada jaholatga qarshi ma'rifatni yoshlar ongini shakllantirishda ma'naviy tarbiyaning mazmuni va mohiyati, o'rni va rolini ochib beradi.

**Kalit so'zlar:** Jaholat, ma'rifat, sharqona tarbiya, tarbiya.

**Аннотация:** Данная статья посвящена вопросам невежества и просвещения в восточном образовании, раскрывает значение и сущность, место и роль духовного воспитания в формировании сознания молодежи против невежества в восточном образовании.

**Ключевые слова:** Невежество, просвещение, восточное образование, воспитание.

**Annotation:** This article is devoted to the issues of ignorance and enlightenment in Eastern education, reveals the meaning and essence, place and role of spiritual education in shaping the consciousness of young people against ignorance in Eastern education.

**Key words:** Ignorance, enlightenment, Eastern education, upbringing.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan video selektorda: "Yosh avlodni hartomonlama yetuk, ma'nun yuksak shaxs sifatida tarbiyalashda maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosida tashkil etish, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligini tavsiya etaman" – degan fikrlarni alohida uqtirib o'tdi.

Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash joizki, hozirgi kunning eng muhim vazifalardan biri komil insonni tarbiyalash va yetuk malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashdan iborat. Shunday ekan bugungi yoshlarni tarbiyalash jarayonida tarbiyaning mazmun mohiyatini, tarbiya jarayonida ular ongiga tarbiyaning zamonaviy metodlari orqali singdirishning o'rni beqiyosdir. Tarbiyani yoshlar ongi va qalbiga singdirish orqali biz ularda bir qancha insoniy fazilatlarni shakllantirishimiz mumkin. Yoshlar dunyoqarashni kengaytirish ularni ona Vatanga bo'lgan muhabbatini ortirishi, sadoqatni yuzaga kelishi, yaxshi va yomonning farqiga borishi kabilar tarkib topadi.

Ta'lim – tarbiya jarayonida "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" kabi fanlar orqali yoshlarni jamiyatning sir - asrorlari bilan

tanishtirib borish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri. Chunki, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar yoshlar tomonidan idrok kilinishi zarur. Idrok qilish jarayonlarida yoshlarda sharqona tarbiyani o'rgatib jaholatga qarshi ma'rifat borasidagi dunyoqarashni mazmun - mohiyatini anglatib, jaholat va ma'rifatga mos ravishda munosabat bildirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Munosabat bildirish uchun esa yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri tom ma'noda ishga tayyor bo'lishi kerak. Shuni e'tiborga olgan holda bugungi kunning tarbiyalanuvchilari sharqona tarbiya, jaholat va ma'rifat kabi bir qator tushunchalarning mazmun -mohiyatini anglab olishlari maqsadga muvofiqdir.

Sharqona tarbiya deganda biz aqliy, jismoniy, mehnat va nafosat tarbiyasi, milliy tarbiyani amalga oshirish usullari va vositalari, yoshlarni dasilabki oilaviy odob axloq qoidalari, urf – odatlariga odatlantirish va amalga oshirish yo'llariga aytamiz.

Jaholat bu – ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'naviyat, iqtisod va siyosat sohasidagi oqimga yot bo'lgan tushuncha desak mubalag'a qilmagan bo'lamiz.

Ma'rifat esa - ta'lim-tarbiya, madaniy, ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy g'oyalar majmui asosida kishilarning ongi, bilimni o'stirishga qaratilgan faoliyatdir.

Jaholat va ma'rifat tushunchasiga Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrini keltirmoqchimiz "...fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega...". Yana bu borada birinchi prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida shunday yozadi "...Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning "da'vati" ham axloq odob tushunchalarini rad etadigan,biz uchun mutlaqo begona g'oyalar ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi" deb bejiz aytmagan.

Shunday ekan bugungi yoshlarni tarbiyalash jarayonida ular ongiga va qalbiga sharqona tarbiyani singdirishning o'rni beqiyosdir. Sharqona tarbiyani yoshlar ongi va qalbiga singdirish orqali biz ularda jaholatga qarshi ma'rifatni shakllantirishimiz mumkin. Yoshlarda jaholatga qarshi ma'rifat to'g'risida dunyoqarashning kengayishi ona Vatanga bo'lgan muhabbatining ortishi, mehribonlikning yuzaga kelishi, yaxshi va yomonning farqiga borishi kabilar tarkib topadi.

Sharq xalqlari tarbiyasida qadimdan jaxolatga qarshi ma'rifat doimo g'alaba qozonib kelgan. Bunga misol qilib sharqning birinchi faylasufi, notig'I, shoiri, donishmandi, xalq dohiysi sifatida Zardushtni olishimiz mumkin. Bizga ma'lumki, qadimda dinda ko'p xudolilik mavjud edi. Shunga ko'ra ota-bobolarimiz rasm-rusumlarni bajarganlar. Ana shunday rasm-rusumlardan biri qabilaning o'z xudosiga qurbonlik qilish odat edi. Bunday rasm-rusumlarni ko'rgan Zardusht aziyat chekadi. Chunki ko'p qurbonlik natijasida ko'plab mollarning tuyog'I kamayib, qirilib ketadi. Qabilalar orasidagi nizolar, qirg'in urushlar zamirida ham ana shu ko'p xudolik bilan bog'liq edi. Ko'p xudolikni zararini tushungan Zardusht 20 yoshida o'zining nor tuyasini minib qishloqmq-qishloq, shaharma-shahar kezadi va yakka xudolik goyasini targ'ib qiladi. Oradan 10 yil o'tib yagona xudo

Axuramazdani yaratadi va o'z oldiga qabila, urug'chilik e'tiqodlariga qarshi yakka xudolik g'oyasini targ'ib qilishni asosiy maqsad qilib qo'yadi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan ko'rinib turibdiki Zardusht avesto davrida ham jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashgan. Chunki u qabilalar orasidagi johillikka chek qo'yib ma'naviyatni, madaniyatni, ma'rifatni olib kirdi. Shunday ekan yosh avlodni har tomonlama komil tinson qilib tarbiyalashga kishilik jamiyati doimo ehtiyoj sezib kelgan. Shuning uchun ham bugungi kunda milliy – ma'naviy qadriyatlarga, urf-odatlariga, mehnatga, tarbiya tizimi sifatida katta e'tibor qaratilmoqda.

Sharqona tarbiya tizimi, milliy pedagogikamizda yosh avlodni jaholatga qarshi marifat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda ularni ona zaminga mos farzand qilib tarbiyalashda ota onalarga, tarbiyachilarga, muallimlarga doimo yordam qo'lini cho'zib kelgan.

### **Adabiyotlar**

1. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch” T.: Ma'naviyat. 2008
2. K.Hoshimov va boshqalar. Pedagogika tarixi. T.: O'qituvchi. 1996
3. Isaqulov M.R. Yuqori sinf o'quvchilari bilan “Jaholatga qarshi- ma'rifat” borasidagi tushunchalar ustida ishlash texnologiyasi // Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti. FAN va JAMIYAT ilmiy – uslubiy jurnal 2020 y № 1
4. Isaqulov, M. (2020). Yuqori sinf o'quvchilari tarbiyasida virtual stendlarning o'rni. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 1(50)*. izvlecheno ot [https://science.i-  
edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/6069](https://science.i-<br/>edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6069)
5. Isaqulov, M. (2020). Formation Of High Spiritual Qualities In Youth. *Arxiv Nauchnyx Publikatsiy JSPI, 1(98)*. izvlecheno ot [https://science.i-  
edu.uz/index.php/archive\\_jspi/article/view/8012](https://science.i-<br/>edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/8012)
6. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ МАЪРИФАТ РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ВЕРТУАЛ СТЕНДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 2(3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5620>
7. Mamadoli Isoqulov, ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ВОСПИТАНИЯ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 1 (2021): Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari
8. Mamadoli Isoqulov, ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИДА ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогика и психологии в современном образовании (октябрь)
9. Mamadoli Isoqulov, ФОРМИРОВАНИЕ МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ – ВОСПИТАНИЯ, Журнал Педагогика и психологии в современном образовании: № 3 (2021): Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari (Noyabr)
10. Isoqulov, M. (2022). ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИ ОНГИДА ЖАҲОЛАТГА ҚАРШИ КУРАША ОЛИШ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ОИЛА ВА МАКТАБ ҲАМКОРЛИГИ. Журнал

- Педагогика и психологии в современном образовании, 1(4). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4746>
- 11.Isoqulov, M. (2021). ТАЪЛИМ – ТАРБИЯ ЖАРАЁНЛАРИДА ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. Zamonaviy ta’limda Pedagogika Va Psixologiya Fanlari, (2). Retrieved from <https://art.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3018>
- 12.KUSHVAKTOV, N., & ISOKULOV, M. The Role of a Creative Approach to the Lesson in Educating High School Students in the Spirit of Enlightenment Against Ignorance. *JournalNX*, 6(12), 18-21.
- 13.Ҳасанбоев ЖХ, Т. Х., Равшанов, О. А., &Кушвактов, Н. Х. (2007). Миллийпедагогикамизтарихийилдизларивабаркамолавлодтарбияси. *Жиззах*, 116, 18-19.
- 14.Kushvaktov, N. X. (2006). Pedagogical and computer bases of study and preparation of students of national-spiritual values.
- 15.Husanovich, K. N. (2023). TECHNOLOGY OF DEVELOPING SPIRITUAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS. *JournalofModernEducationalAchievements*, 2(1), 64-69.
- 16.Husanovich, K. N. (2023). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF AN SELFLESS PERSON. *Journalofmarketing, businessandmanagement*, 1(10), 10-13.
- 17.Усманов, Н. У., &Кушвактов, Н. Х. (2009). Научно-методическое обеспечение формирования основ здорового образа жизни у студенческой молодёжи. *Известия Самарского научного центра Российской академии наук*, 11(4-6), 1458-1462.